**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI**
**OLIY TA’LIM, FAN VA INNOVATSIYA VAZIRLIGI**
**TOSHKENT DAVLAT SHARQSHUNOSLIK UNIVERSITETI**

**“TASDIQLAYMAN”**
Rektor G.Rixsiyeva
_______________
2025 yil “30” 06

# SHARQ MAMLAKATLARINING TIL VAZIYATI VA SIYOSATI (XITOY )
# FANINING O‘QUV DASTURI

**Bilim sohasi:** 200 000 – San’at va gumanitar fanlar

**Ta’lim sohasi:** 230 000 – Tillar

**Mutaxassislik:** 70230101– Lingvistika (sharq tillar bo‘cha)

**Toshkent-2025**

Sharq xalqlari tillari va adabiyoti institute direktori: ________ Mirzaxmedova X.V.

Xitoyshunoslik oliy boshlig'i ________ Xasanova F.M.

ARM boshlig'i ________ Yuldasheva M.M.

| Fan/modul kodi<br>O'MTV1204 | | O'quv yili<br>2025-2026 | Semestr<br>2 | ECTS – Kreditlar<br>4 | |
|---|---|---|---|---|---|
| Fan/modul' turi<br>Majburiy | | Ta'lim tili<br>O'zbek/rus | | Haftadagi dars soatlari<br>4 | |
| 1. | Fanning nomi | Auditoriya mashg'ulotlari (soat) | Mustaqil ta'lim (soat) | Jami yuklama (soat) | |
| | Sharq mamiakatlarining til vaziyati va siyosati (Xitoy) | 48 | 72 | 120 | |

**2.** **I. I. Fanning mazmuni**

Fanni o'qitishdan maqsad – fanning asosiy maqsadi talabalarni Xitoyning hozirgi holati, hududi, aholisi, hitoy va kam sonli millatlar tillari, XXRning hozirgi va turli tarixiy davrlardagi til siyosatining maqsad va vazifalarini ochib berish. Shuningdek hozirgi davrda tilda yuz berayotgan jarayonlarni o'rganish hamda tilning rivojlanishi va o'zgarishiga ta'sir etadigan lingvistik va ekstralingvistik omillar organiladi. XXRda klassik til "Wenyan", "Baihua", "Putonghua" XXRning umummilliy til sifatida shakllanish bosqichlari va uning oqibatlarini o'rganish muhimdir.

Fanning vazifasi– ushbu fanni o'rganish magistrlik dissertatsiyalarini yozishda magistrlarga katta yordam beradi. Chunki tilda yuz berayotgan jarayonlarni tilning lug'at tarkibiga ta'sirini bilish tilni yanada chuqur o'rganishda yordam berishi tabiiy holdir.

"Sharq mamlakatlarining til vaziyati va siyosati (xitoy)" fanining o'zlashtirish jarayonida amalga oshiriladigan masalalar doirasida magistr:

- "til vaziyati" tushunchasi haqida, til vaziyati turlari va ularning farqlari haqida, til vaziyatining o'zgarishiga ta'sir etuvchi omillar haqida **bilimga ega bo'lishi kerak**;

- til vaziyatining o'zgarishi omillarini o'rganishda ilmiy-tadqiqot metodlaridan foydalanish **malakasini hosll qilishlari kerak**;

- tilning lug'at tarkibini to'ldirishda qatnashadigan so'z yasovchi usullarni o'rganishda **ko'nikma hosil qilishi kerak**,

- tilning siyosat bilan bog'liqligi, til etnoslarining kelib chiqishl, ularning hududiy til sifatida shakllanish jarayonlari, til areallari, kam sonli millatlarning til va millat sifatida tarixiy shakllanish bosqichlari, bugungi

holati XXR tomonidan kam sonli millatlarga nisbatan o'tkazib kelinayotgan siyosat va siyosiy yo'riqlar, siyosatda monoetnik va polietnik tushunchasi,

- til vaziyati fani kategoriyalari, jamiyatda til vaziyatini xarakterlayotgan omillar, XXR da ta'lim standartlari va unga amal qilish mezonlari, XXRda savodxonlik masalalari bilan bo'g'liq muammolar va ularning yechimlari, jamiyat tili uchun mafkura va targ'ibot vositalarini belgilovchi matbuot va axborot vositalari,

- masofali o'qitishning joylar uchun ahamiyati, loylarda rasmiy ish yuritishda amal qilinyotgan siyosiy mezonlar, XXRda sheva va laxja tillari, o'qitilayotgan fanning grammatikasi,

- Xitoy yozuvi va til islohotlari, jamiyatda til islohotlarining ahamiyati, o'rganilayotgan tilning grammatikasi, leksikalogiyasi bo'yicha asosiy lug'at boyligi va terminalogioyasining shakllanishi haqida tushuncha olish, **tajriba va ko'nikmaga ega bo'lish kerak.**

**Xorij tajribasiga muvofiqligi:**

Mazkur fan dasturi xalqaro tan olingan reytinglarda birinchi top 300 talik ro'yxatga kiruvchi Pekin universiteti Xalqaro xitoy tili instituti (https://www.oir.pku.edu.cn/) xorijiy tajribasini inobatga olgan holda takomillashtirildi.

https://www.pku.edu.cn/about.html

## II. Asosiy nazariy qism (ma'ruza mashg'ulotlari)

### II.I. Fan tarkibiga quyidagi ma'ruza mavzulari kiradi:

**1-mavzu. Fanga kirish, fanning nazariy mazmuni**

*Sosiolingvistika, til etnos masalalari.*

Sosiolingvistika, til va ahamiyat, til va etnos, til vaziyati tushunchasi, til o'qitilayotgan mamlakatdan etnolingvistik vaziyat, bilingvizm va polelingvizm, davlat tili tushunchasi, jamiyatda til vaziyatini harakterlovchi omillar, til va sovodxonlik, til va matbuot, radio, kin ova televideniya tili, rasmiy yozmalar va ish yuritish tili, badiiy adabiyot tili, ilmiy til masalalari, leksik fondni rivojlantirishninig asosiy yo'nalishlari, tilning zamonaviylashtirish shart-sharoitlari va h.k.

**2-mavzu. Tilshunoslikdagi lingvogeografik va lingvoareal masalalarini nazariy asoslari**

Xitoyning lingvogeografik va lingvoareal tavsifi, til o'qitilayotgan mamlakatda tarqalgan boshqa xalq va millatlar tili, lahja va shevalar haqida umumiy ma'lumot.

**3-mavzu. O'rganilayotgan mamlaktda til siyosati**

Xitoyda til vaziyati, o'rganilayotgan mamlakatda standart (putunxva) va boshqa tillarning funksiyasi. Xitoyda til siyosati: putungxuani keng targ'ib etish va uni rivojlantirish borasida olib borilayotgan ishlar va bu borada turli hil ilmiy va ijtimoiuy jamiyatlarning tutgan o'rni. Xitoy qonunchiligida tilga oid qabul qilingan normativ hujjatlar va qonun qoidalar. Xitoy tarixida boshqa tillarga bo'lgan munosabat. Mamlakatda "putunxva" va boshqa tillarning radio, teleko'rsatuv, ta'lim, ilm-texnika, matbuot sohalarida qo'llanilishi.

**4-mavzu. Xitoy tilining dunyo tillari bilan aloqasi**

Xitoy tilining dunyo tillari geneologik tasnifi hamda dunyo tillarining morfologik yoki tipologik tasnifidagi o'rni.

**5- mavzu. Xitoy til tarixini davrlashtirish va bu davrdagi til vaziyati**

Xitoy "umumqo'llanuvchi til" (putunxva) tarixini davrlashtirish va har bir davrdagi til vaziyati. So'zlashuv tili va yozma adabiiy til. Yozma adabiy til tarixini davrlashtirish. Har bir davrdagi o'zlashtirilayotgan tilning rasmiy, amaliy, yuridik va ijtimoiy o'rni, ikkitillilik masalalari. O'zlashtirilayotgan tilning hozirgi glaballashuv jarayonidagi mavqei, o'zlashtirilayotgan tilning lug'at tarkibi, xitoy tiliga o'zga tillardan kirib kelayotgan so'zlarni qabul qilish bo'yicha olib borilayotgan ishlar.

**6- mavzu: Fan sifatida sosiolingvistikaning mazmunini.**

Jahon tilshunosligida sotsiolingvistikaning o'rni, fan sifatida yuzaga kelishi va takomil masalasi; Xitoy sotsiolingvistikasining xususiyatlari, shuningdek, xitoy va g'arb sotsiolingvistikasining umumiy va o'ziga xos tomonlari haqida fikr yuritadi.

**7- mavzu: Sosiolingvistikaning tadqiqot obyekti**

Til va miliat, miliiy tillar, tilning ijtimoiy diffrensiyasi,til va ijtimoiy tuzilmalar o'rtasidagi aloqalar, til vaziyatlarining ijtimoiy omillar bilan belgilanadigan tipologiyasi, ko'p tillikning ijtimoiy jihatlari o'rganiladi.

**8- mavzu: Sotsiolingvistikaning boshqa fanlar bilan munosabati**

Til va uning mavjudligining ijtimoiy sharoitlari o'rtasidagi munosabatlar o'rganiladi. Sotsiolingvistika, psixiolingvistika, etnolingvistika fanlari bilan bog'liqlik masalalari ko'rib chiqiladi.

**9- mavzu: Etnolingvisitik vaziyat tushunchasi**

Ma'lum bir mintaqada yashab kelayotgan etnoslar tili, tarixiy rivojlanishdagi shart sharoitlari, etnoslingvistik vaziyatni aniqlashda milliy-madaniy qadriyatlar o'rganiladi.

**10- mavzu: Til vaziyati va siyosati tushunchasi, ularning o'zaro bog'liklik masalasi.**

Til vaziyati va siyosatiga oid terminlar, ularning aloqadorlik masalalari, davlatning til bilan bog'lik farmon va qarorlari, til vaziyatini yuzaga chiqarayotgan ichki va tashqi omillar o'rganiladi

**11- mavzu: XXRda shevalar masalasi**

XXRda shevalarning yuzaga kelishi, rivojlanishi bilan bog'lik tarixiy bosqichlari, til vaziyatini shakllanishidagi xususiyatlari ko'rib chiqiladi.

**12- mavzu: XXRda shevalarni qiyosiy - tipologik tahlili**

XXRda mavjud shevalarning umumiy va farqli jihatlari, grammatik, leksik, semantik xususiyatlari o'rganiladi, Sheva tillarining paydo bo'lishiga ko'ra, geografik joylashuviga ko'ra tasniflash.

**III. Amaliy mashg'ulotlari bo'yicha ko'rsatma va tavsiyalar**

Amaliy mashg'ulotlar uchun quyidagi mavzular tavsiya etiladi:

1. Til vaziyatini o'zgarishiga ta'sir etuvchi omillar.
2. Til vaziyati fanining boshqa tilshunoslik fani bilan bog'liqligi.
3. Til vaziyati va sotsiolingvistika.
4. Til vaziyatini obyektiv va subyektiv jihatlari.
5. Xitoy tili uchun qo'llanilayotgan lotin alaifbosi va uning xitoy tiliga moslashtirilishi.
6. Xitoy tili tarixida chet tillaridan kirgan so'zlar va uning tilga ta'siri.
7. Xitoyda til lingvisitkasiga oid tadkikotlar.
8. XXRda etnolingvisitik vaziyat va uning xususiyatlari.
9. XXRda til vaziyati tushunchasi.
10. XXRda Sheva tillari masalasi va xususiyatlari.
11. Mamlakatda putungxuaning umummilliy til sifatida joriylanishi.
12. Xitoyda tilini standartlashtirish masalasi.

**IV. Mustaqil ta'lim va mustaqil ishlar**

**Mustaqil ta'lim uchun tavsiya etiladigan mavzular:**

1. Xitoyda amalga oshirilayotgan yozuv islohotlari;
2. Xitoy tiliga chet tiliaridan kirib kelayotgan so'zlar borasida olib borilayotgan ishlar va ularni moslashtirish muammolari;
3. Xitoy tili leksikasini shakllantirishda sotsiolingvistik muammolar;
4. Xitoyda olib borilayotgan til siyosatining oqibatlari.
5. Xitoyda sosiolingvistikaning fan sifatida paydo bulishi va takomil masalasi.
6. Xitoyda til sheva xususiyatlari
7. Fan Yan asari xakida
8. Sosiolingvistikaning boshka fanlar bilan munosabati.
9. Xitoy sotsiolingvistikasi haqidagi nazariy bilimlar.
10. Sosiolingvistikaning tadkikot metodologiyasi.
11. Xitoyda til vaziyati.
12. Xitoyda til siyosati.
13. Xitoyda til holati.
14. Xitoy sheva tillarining leksikasi.
15. Xitoy tilini standartlashish masalasi.
16. Xitoy tilini transkripciyalash masalasi.
17. Xitoy shevalarini o'rganishga bag'ishlangan manbalarni tahlili.

| | |
|---|---|
| | 18.XXRda biligvistik ta'lim.<br>19.Tibetda til vaziyati. |
| 3. | **V. Ta'lim natijalari / Kasbiy kompetensiyalari**<br>**Talaba bilishi kerak:-**<br>"til vaziyati" tushunchasi haqida, til vaziyati turlari va ularning farqlari haqida, til vaziyatining o'zgarishiga ta'sir etuvchi omillar haqida **bilimga ega bo'lishi kerak**;<br>- til vaziyatining o'zgarishi omillarini o'rganishda ilmiy-tadqiqot metodlaridan foydalanish **malakasini hosil qilishlari kerak**;<br>- tilning lug'at tarkibini to'ldirishda qatnashadigan so'z yasovchi usullarni o'rganishda **ko'nikma hosil qilishi kerak**,<br>- tilning siyosat bilan bog'liqligi, til etnoslarining kelib chiqishi, ularning hududiy til sifatida shakllanish jarayonlari, til areallari, kam sonli millatlarning til va millat sifatida tarixiy shakllanish bosqichlari, bugungi holati XXR tomonidan kam sonli millatlarga nisbatan o'tkazib kelinayotgan siyosat va siyosiy yo'riqlar, siyosatda monoetnik va polietnik tushunchasi,<br>- til vaziyati fani kategoriyalari, jamiyatda til vaziyatini xarakterlayotgan omillar, XXR da ta'lim standartlari va unga amal qilish mezonlari, XXRda savodxonlik masalalari bilan bo'g'liq muammolar va ularning yechimlari, jamiyat tili uchun mafkura va targ'ibot vositalarini belgilovchi matbuot va axborot vositalari,<br>- masofali o'qitishning joylar uchun ahamiyati, loylarda rasmiy ish yuritishda amal qilinyotgan siyosiy mezonlar, XXRda sheva va laxja tillari, o'qitilayotgan fanning grammatikasi,<br>- Xitoy yozuvi va til islohotlari, jamiyatda til islohotlarining ahamiyati, o'rganilayotgan tilning grammatikasi, leksikalogiyasi bo'yicha asosiy lug'at boyligi va terminalogioyasining shakllanishi haqida tushuncha olish, **tajriba va ko'nikmaga ega bo'lish kerak**. |
| 4. | **VI. Ta'lim texnologiyalari va metodlari:**<br>Talabalaming "Sharq mamlakatlarining til vaziyati va siyosati (xitoy)" fanini o'zlashtirishlari uchun o'qitishning ilg'or va yetakchi usullarini qo'llash, yangi pedogogik texnologiyalardan foydalanish muhim ahamiyat kasb etadi. Shuning bilan birga, arabshunos - tilshunoslarni tayyorlashda o'tmishda ota - bobolarimiz tomonidan yaratilgan ilg'or ta'lim usullarini, notiqlik san'ati, balog'at bilimlari masalalarini egallash, yozma adabiy til, adabiy tilning uslubiy imkoniyatlaridan ustalik bilan foydalanish mahoratini singdira borish talab etiladi. Fanni o'qitish jarayonida darslik, o'quv va uslubiy qo'llanmalar, ma'ruza |

| | |
|---|---|
| | matnlari, dars yo'rug'lari, tarqatma materiallar va ko'rgazmali qurollardan foydalaniladi. |
| 5. | **VII. Kreditlarni olish uchun talablar:**<br><br>Fanga oid nazariy va uslubiy tushunchalarni to‘la o‘zlashtirish, tahlil natijalarini to‘g‘ri aks ettira olish, o‘rganilayotgan mavzular haqida mustaqil mushohada yuritish vajoriy, oraliq nazorat shakllarida berilgan vazifa va topshiriqlarni bajarish, yakuniy nazorat bo‘yicha yozma ishni topshirish. |
| 6. | **Asosiy adabiyotlar**<br>1. I.N.Bekmuratov. Xitoyda til vaziyati va siyosati (sotsio lingvistik tahlil). Toshkent - 2010 yil.<br>2. Sh.I.Shazamanov, I.N.Bekmuratov. Xitoy matbuoti tarixi va tili. Toshkent-2012 yil.<br><br>**Qo‘shimcha adabiyotlar**<br>3. Мирзиёев Ш.М. Хозирги замон ва Янги Узбекистан. - Тошкент: Узбекистан, 2024.<br>4. Mirziyoyev Sh.M. Yangi O'zbekistonda erkin va faravon yashaylik, 5-jild. - Toshkent: O‘zbekiston, 2023.<br>5. Mirziyoyev Sh.M. Yangi 0‘zbekistonda taraqqiyot strategiyasi asosida demokratik islohotlar yo'lini qat'iy davom ettiramiz. 6-jild. - Toshkent: O‘zbekiston, 2023.<br>6. Mirziyoyev SH.M. Tanqidiy tahlil, qat’iy tartib-intizom va shaxsiy javobgarlik – har bir rahbar faoliyatining kundalik qoidasi bo‘lishi kerak. – T.: “O‘zbekiston”, 2017.<br>7. Xitoycha ruscha lug‘at. Shanxay 2004.<br>8. Hojiev A. Tilshunoslik terminlarining izohli lug‘ati. T., 2002.<br>9. Gotlib O.M. Практическая грамматика китайского языка. M., 2002.<br>10. A.A.Karimov “Xitoyshunoslik masalalari” maqolalar to‘plami. T., 2020 b 190<br><br>11. 沈家煊.现代语言学词典.-北京. 2002.441 页.<br>12. М.Я.Капулова. Социолингвистика в Китае: история становления и перспективы развития.// Социолингвистика.2020, №3(3 стр 30-40)<br>13. XXR ShanxayUniversiteti dasturidab foydalangan holda tuzilgan 汉语国际教育本科专业（国际学生）培养方案<br>**Scopusdan maqolalar**<br><br>1. Lola A. Sultanova, Shakhnoza E. Khakimova, Nigina Rasuleva, Ziyoda Artikova, Nigora Saydalieva. Surgical Terminology of Modern Chinese and Their |

| | |
|---|---|
| | Thematic Group. Vol. 11 No. 12 (2023). Q2. SJR 2022 – 0.21. Journal of law and sustainable development. https://ojs.journalsdg.org/jlss/article/view/2695<br><br>2. Shoira Usmanova, Shohistakhon Shamsieva, Nargiza Ismatullayeva. Scientific Research On Sino-Uzbek Contrastive Linguistics Carried Out In Recent Years. May 20, 2023. Q2. SJR 2022 – 0.21. Journal of Namibian studies.<br><br>**Internet saytlari:**<br><br>1. www.gov.uz – O‘zbekiston Respublikasi hukumat portali.<br>2.www.hanban.edu.cn<br>3.www.baidu.com |
| 7. | O‘quv dasturi “Xitoyshunoslik oliy maktabi” da ishlab chiqilgan 2025-yil “11” 06 dagi “20” – sonli bayonnomasi bilan ma’qullangan.<br><br>O‘quv dasturi Toshkent davlat sharqshunoslik universitetining 2025-yil “25” 06 dagi “11” – sonli bayoni bilan tasdiqlangan. |
| 8. | **Fan/modul uchun mas’ul:**<br><br>**Karimov A.A.** - Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti “Xitoyshunoslik oliy maktabi” professori, f.f.n.. |
| 9. | **Taqrizchilar:**<br><br>F.M. Xasanova – TDSHU “Xitoyshunoslik oliy maktabi ” dotsenti, PhD.<br><br>S.A.Nosirova– O‘zbek – Xitoy Konfutsiy nomidagi instituti direktori professori, filologiya fanlari doktori. |